

Toshkent viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹

2025- yil yanvar-dekabr


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-dekabr oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **71 783,7** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,2** % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar hajmi **56 317,9** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **112,8** % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 2024- yilning mos davriga (*18 616,8 ming so'm*) nisbatan **113,2** % ga o'sib, **22 900,4** ming so'mni tashkil etdi.

¹ 2024- yil yanvar-dekabr oylari hajmi va 2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **52 427,6** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **73,0 %** ini tashkil etdi.

II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar-dekabr

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Toshkent viloyati	71 783,7	100,0	115,2
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	2 081,0	2,9	116,7
Olmaliq	3 721,4	5,2	117,5
Angren	3 464,3	4,8	117,1
Bekobod	2 253,2	3,1	117,8
Ohangaron	1 190,6	1,7	117,1
Chirchiq	4 234,0	5,9	117,6
Yangiyo'l	2 162,1	3,0	117,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	1 356,9	1,9	116,5
Ohangaron	797,3	1,1	116,8
Bekobod	1 519,5	2,1	117,2
Bo'stonliq	3 400,4	4,7	116,9
Bo'ka	1 473,6	2,1	116,4
Quyichirchiq	1 165,6	1,6	116,4
Zangiota	5 352,5	7,5	118,0
Yuqori Chirchiq	2 239,2	3,1	117,5
Qibray	4 430,8	6,2	116,9
Parkent	2 063,4	2,9	117,8
Piskent	830,5	1,2	117,2
O'rta Chirchiq	1 774,1	2,5	117,0
Chinoz	1 576,7	2,2	117,2
Yangiyo'l	2 330,1	3,2	116,8
Toshkent	3 259,2	4,5	117,6
Yashirin iqtisodiyot	19 107,4	26,6	111,2

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

Toshkent viloyatida eng yuqori ulushga ega hududlar Zangiota (7,5 %), Qibray (6,2 %) tumanlari hamda Chirchiq (5,9 %), Olmaliq (5,2 %) shaharlaridir.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida asosiy xizmat turlaridan ba'zilari, jumladan moliyaviy xizmatlar **32,8 %** ga (*ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi 3,3 band*), savdo xizmatlari **13,4 %** ga (*hissasi 2,9 band*), yashash va odatlanish xizmatlari **10,4 %** ga (*hissasi 1,9 band*), transport xizmatlari **13,4 %** ga (*hissasi 2,7 band*), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **25,1 %** ga (*hissasi 0,9 band*), boshqa xizmatlar **18,6 %** ga (*hissasi 1,0 band*), ijara xizmatlari **24,8 %** ga (*hissasi 0,6 band*), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **14,9 %** ga (*hissasi 0,5 band*), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar **14,0 %** ga (*hissasi 0,3 band*), shaxsiy xizmatlar **10,5 %** ga (*hissasi 0,3 band*), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **15,6 %** ga (*hissasi 0,5 band*), ta'lim sohasidagi xizmatlar **10,5 %** ga (*hissasi 0,3 band*), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar **4,5 %** ga (*hissasi 0,1 band*) o'sdi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan ulushi, %
	2024- y.	2025- y.		
Xizmatlar- jami	56 518,1	71 783,7	115,2	100,0
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 817,1	2 566,7	125,1	3,6
Moliyaviy xizmatlar	5 456,3	7 346,0	132,8	10,2
Transport xizmatlari	10 374,6	13 636,4	113,4	19,0
shu jumladan: avtotransport xizmati	9 504,8	12 274,9	112,8	17,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	13 032,5	16 110,2	110,4	22,4
Savdo xizmatlari	14 431,7	17 351,6	113,4	24,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1 513,9	1 997,1	115,6	2,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 746,2	2 156,0	110,8	3,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 614,7	1 998,3	114,9	2,8
Ijara xizmatlari	1 103,0	1 496,2	124,8	2,1
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 178,6	1 462,8	114,0	2,0
Shaxsiy xizmatlar	1 352,7	1 709,4	110,5	2,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar	758,0	861,8	104,5	1,2
Boshqa xizmatlar	2 138,8	3 091,4	118,6	4,3


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi

2025- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 22,4 foiz, savdo xizmatlari 24,2 foiz, transport xizmatlari 19,0 foiz, moliyaviy xizmatlar 10,2 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 3,6 foiz, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa 3,0 foiz ulushini tashkil etdi.


Taqqoslash uchun: 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari 23,7 foiz, savdo xizmatlari 25,6 foiz, transport xizmatlari 18,2 foiz, moliyaviy xizmatlar 9,7 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 3,0 foiz, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa 2,7 foiz ulushni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2025- yil yanvar-dekabr, %



2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **3,6 %** ni tashkil etdi (2024- yilning mos davrida **3,0 %**), **Transport xizmatlarida 19,0 % (18,2 %)**, Ijara xizmatlarida **2,1 % (1,9 %)**.

Savdo xizmatlarining o'rish sur'ati dinamikasi



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida eng yuqori ulushda **Savdo xizmatlari** hajmining **24,2 %** ulushini, **Yashash va ovqatlanish xizmatlari 22,4 %**, **Transport xizmatlari 19,0%**, **Moliyaviy xizmatlar 10,2% ni** tashkil etdi.

Maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari shu sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekt bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati.](#)